

UDC (UO‘K, YDK): 894 375

ABDULRAZZOQ GURNANING “JANNAT” ROMANIDA DINIY SYUJETNING BADIY TALQINI¹⁹

Hakimov Kamol Normuhammadovich

“Darkhan-school” o‘quv muassasasi o‘qituvchisi,
adabiyotshunos

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: kamolnormuxammadovich85@gmail.com

ORCID ID: 0009-0006-0182-3123

ANNOTATSIYA	KALIT SO‘ZLAR
Roman epik janrlar orasida shakliy va davriy jihatdan eng keng qamrovli janr bo‘lib, voqelikni ijtimoiy-falsafiy yondashuvda badiiy aks ettirish imkoniyati, shuningdek, global muammolarni san‘at tilida ifodalashdagi salohiyati bilan ajralib turadi. Janrning bunday universalligi uni "umuminsoniyatning badiiy xronikasi" sifatida talqin etishga asos bo‘la oladi. Ushbu maqolada afrikalik yozuvchi Abdulrazzoq Gurnaning “Jannat” romani qiyosiy-tipologik tahlil asosida o‘rganiladi. Asarning fabula qurilishi, obrazlar tizimi va ularning genealogik xususiyatlari nazariy-adabiy mezonlar asosida tahlil qilinadi. Romanning bosh qahramoni Yusufning sarguzashtlarga boy hayoti Qur‘oni karimdagi “Yusuf” surasi bilan qiyoslanadi, ular orasidagi mushtaraklik va tafovutli jihatlar aniqlanadi. Jumladan, o‘n ikki yoshli Yusufning ota-onasining qarzdorligi bois savdogar boyga qullikka berilishi, uning boshidan kechirgan sinovlari, yo‘l-yo‘lakay uchragan voqealar va shaxsiy o‘zgarishlari diniy manbalardagi talqinlar bilan qiyosiy-tipologik yondashuv asosida o‘rganiladi. Shuningdek, maqolada roman matnini mavzulashtirishning nazariy murakkabliklari ham yoritiladi. Muallif tomonidan “Jannat” romanining mavzu doirasi va uning ijtimoiy-ma‘naviy zamiriga oid nazariy qarashlar ham tahlil qilinib, janr tabiatining o‘ziga xosliklari bilan uzviy bog‘liqligi ochib beriladi.	“Yusuf” surasi, “Jannat”, postkolonial adabiyot, diniy syujet: qullik, tush, ayol makri; rivoyat, xunuklik, go‘zallik, hurriyat. Received: June 12, 2025 Accepted: July 1, 2025 Available online: September 3, 2025

¹⁹**For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Hakimov K. Abdulrazzoq Gurnaning “Jannat” romanida diniy syujetning badiiy talqini. // Komparativistika (Comparative Studies). – 2025. – Vol.2, № 3(7) – B. 267-285.

THE ARTISTIC INTERPRETATION OF THE RELIGIOUS PLOT IN ABDULRAZAK GURNAH'S NOVEL "PARADISE"

Khakimov Kamol Normukhammadovich

Teacher and literary scholar at
"Darkhan-school" educational center
Tashkent, Uzbekistan

E-mail: kamolnormuxammadovich85@gmail.com

ORCID ID: 0009-0006-0182-3123

ABSTRACT	KEY WORDS
The novel, as an epic genre, stands out for its extensive formal and temporal scope, its capacity to reflect social and philosophical reality artistically, and its potential to address global themes through literary expression. This universality allows it to be considered a "literary chronicle of humanity." The present article offers a comparative-typological analysis of the novel "Paradise" by African writer Abdulrazak Gurnah. The study examines the narrative structure, system of characters, and their genealogical features within the framework of literary theory. The life story of the protagonist, Yusuf—a journey filled with trials and adventures—is compared to the narrative of the Surah "Yusuf" in the Holy Qur'an. Commonalities and differences between the religious text and the literary work are explored. The image of twelve-year-old Yusuf, sold into slavery to a wealthy merchant due to his parents' debts, and the events that follow are analyzed in light of religious interpretations using a comparative-typological method. The article also addresses the theoretical challenges of thematizing novels and offers reflections on the thematic direction of "Paradise", its social and spiritual dimensions, and their connection to the essential characteristics of the novel as a genre.	Part "Yusuf", "Paradise", postcolonial literature, religious plot, slavery, dream, female cunning, narrative, ugliness, beauty, freedom.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ РЕЛИГИОЗНОГО СЮЖЕТА В РОМАНЕ АБДУЛРАЗЗАКА ГУРНЫ "РАЙ"

Хакимов Камол Нормухаммадович

Преподаватель, литературовед
образовательная организация "Darkhan school"
E-mail: kamolnormuxammadovich85@gmail.com
ORCID ID: 0009-0006-0182-3123

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
Среди всех эпических жанров роман выделяется своей широтой в формальном и временном плане, возможностью художественного отражения социально-философских сторон действительности, а также способностью раскрывать глобальные темы через призму искусства. Такая универсальность жанра позволяет рассматривать его как «художественную хронику человечества». В настоящей статье проводится сравнительно-типологический анализ романа «Рай» африканского писателя Абдулраззака Гурны. В частности, на основе литературно-теоретических критериев рассматриваются построение фабулы произведения, система образов и их генеалогические особенности. Жизненный путь главного героя Юсуфа, полный приключений и испытаний, сопоставляется с сюжетом суры «Юсуф» Священного Корана с целью анализа сходств и различий между религиозным источником и художественным текстом. Образ двенадцатилетнего мальчика Юсуфа, проданного в рабство богатому купцу из-за долгов его родителей, и его дальнейшая судьба рассматриваются в контексте религиозных интерпретаций с использованием сравнительно-типологического подхода. Также в статье освещаются теоретические сложности тематизации романа. На основе авторских выводов о тематической направленности «Рая», его социальной и духовной насыщенности устанавливается связь категорий содержания с жанровой спецификой произведения	Сура «Юсуф», «Рай», постколониальная литература, религиозный сюжет, рабство, сон, хитрость, повествование, безобразное, прекрасное, свобода.

KIRISH

Har bir real voqelik hayotdagi umumiy uzvning juz'iy hodisada ayrim shakldagi ko'rinishlaridir. Har bir qismda butunlik tabiati, har qanday butunlikda esa qismning ruhi mavjud. Vissarion Belinskiy qayd etganidek, san'atdagi har bir ijod namunasi umumiy olam g'oyasining o'z-o'zida biqinib, juz'iy obraz shakliga kirgan ba'zi turdagi ko'rinishidir (V. Belinskiy., 1955, 18). Biroq badiiy ijod hayot hodisasini ifoda jarayonidagi obrazning xarakteriga ko'ra turlicha shaklda namoyon etadi. Lirik, epik va dramatik poeziya voqelikni ijod sahnida aks ettirishdagi tafovutlar bilan xarakterlanadi. Masalan, badiiyatning epik turida muallif tasvirlanayotgan voqeaning qobig'iga yashirinadi va sharpa-hikoyachi mavqeyida qoladi. Bu holat, ayniqsa roman janridagi asarlarda yaqqol ko'rinadi. O'zbek adabiyotshunosligi tarixida roman janrining o'ziga xos xususiyatlari, uning doston, hikoya kabi qator janrlardan farqli belgilari haqida ilk nazariy-qiyosiy ta'rifni birinchi o'zbek professori Abdurauf Fitrat bergan. Olimning fikricha, ro'mon (Fitrat romanni shunday ataydi.- K.H) hayotning belgili bir davrini keng suratda tasvir etib yozilgan asar bo'lib, uning qahramon(lar)i qaysi zamonda, qaysi muhitda, qaysi jamiyatda yashamasinlar, shularning urf-odati, tartiblari, orzu-tilaklari, fojialari, axloq-e'tiqodlari ifodachi(lar)i sanalishadi; voqelik ingichka va keng suratda tasvir etiladi (Abdurauf Fitrat., 2009, 84-85). Nazariy manbalarda romanning tarixiy, zamonaviy, harbiy, sarguzasht-fantastik, ijtimoiy-psixologik, hajviy, hujjatli singari bir qancha turlari sanaladi. Roman voqelarining murakkab, tasvirning polisemantik idrok etilishi natijasida ushbu janrning nazariy repertuarida yangicha turlar ham paydo bo'lmoqda. Jumladan, Naim Karimovning "Cho'lpon" nomli hujjatli asarining "ma'rifiy roman" deb, shuningdek yozuvchi Javlon Jovliyevning "Qo'rqma" degan ta'kid-sarlavhali asarining professor Bahodir Karimov tadqiqotlarida "lirotragik roman" deb tavsiflanishi bunga misol bo'la oladi. Jahon adabiyoti tajribasida an'anaviy mavzudagi romanlardan g'ayrioddiy ifoda yo'sini, emotsional-ekspressiv ta'siri, hayot hodisasiga munosabatning noodatiyligi bilan farqlanib turuvchi yana bir tur mavjudki, u "mistik roman" deb nomlanadi.

Syujetning sirliligi, o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan epizodlar, metaforik ifoda, hissiyotga notanish tuyg‘u bu turdagi romanlarga xos xususiyatlar sanaladi. Mistik romanda obyektiv borliq hamda metafizik, ruhiy, diniy olamlar orasidagi uzviy bog‘liqlik asosiy o‘rin tutadi. Tush orqali kelajakka ishora, g‘ayritabiiy kuchlar vositasida insoniyatni yaqinlashayotgan fojialardan ogoh etish, ruhlarning bezovtalanishi, hayot va o‘lim o‘rtasidagi masofaning yo‘qolishiga yaqin vaziyatlar, ajdodlarning xavf haqidagi ogoh qo‘ng‘iroqlari, ramziy makonlar, muqaddas qadriyatlar, diniy-falsafiy shuur holati mistik romanga xos badiiy unsurlardir. Gabriel Garsia Markesning “Tanholikning yuz yili”, Herman Hessening “Siddhartha”, Paulo Koeloning “Alkimyogar” asarlari nisbatan shu tipdagi romanlar sirasiga kiradi. Nega “nisbatan”? Sababi har qanday badiiy ijod namunasida turli adabiy oqimlarning ohangi eshitilgani singari, badiiy matnning mavzular ko‘lami ham juda serqirradir. Adabiyotshunos olim Suvon Meli ta’kidlaganidek, og‘iz (qalam)dan chiqqan so‘z miltiqdan otilgan o‘q kabidir, uning ohangi quloqlarga bir xil eshitilmaydi (S.Meli., 2020, 86). Tanzaniyalik yozuvchi Abdulrazzoq Gurnaning “Jannat” romani syujetida ham mistik elementlar tasviri salmoqli o‘rin egallasa-da, ular yaxlit bir mistik olamning, mistik makonning vujudga kelishida birlamchi ahamiyat kasb etmaydi.

ASOSIY QISM

Abdulrazzoq Gurnaning ilk asari 1987-yili “Jo‘nash haqidagi xotira” nomida chop etilgan. Uning aksariyat asarlarida mustamlaka yoki yarimmustamlaka o‘lkalardagi ijtimoiy-siyosiy hayot, mazlum kishilarning og‘ir qismati, unutilib ketayotgan urf-odatlar singari mavzular qalamga olinadi. Zulm ostidagi yo‘qsul kishilarning achchiq qismatini: qadr-qiymatning toptalishi, orzularning zavoli, maqsadlarning absurd fojiasi, muhabbatning ilohiy kuchiga ziyon yetishi kabi mavzularni aks ettirish postkolonial adabiyotiga xos xususiyat sanaladi.

A. Gurnaning “Jannat” (“Paradise”) romanida bosqinchi qo‘l ostida umidlari zanjirband qilingan millat qismati aks ettirilgan. Asar 1994-yili yozilgan bo‘lib, unda 1900-1914-yillardagi Sharqiy Afrikada yuz bergan voqealar – inglizlar

Afrikada mahalliy aholini o'z yeridan haydab chiqarayotgan, nemislar butun qit'a bo'ylab temiryo'l qurishni rejalashtirayotgan davrda aks etgan voqealar tasvirlanadi. Muallif 2021-yil "madaniyatlar va qit'alararo bo'shliqda turib, mustamlakachilik oqibatlari va qochqinlar taqdirini murosasiz hamda rahmdillik bilan aks ettirgani uchun" Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

"Jannat" asari olti qismdan iborat bo'lib, unda Yusuf ismli bolaning qismati yoritiladi. Voqealar birinchi jahon urushi arafasida Afrikada yuz beradi. "Jannat" romanini tilimizga Madina Abdullayeva o'giran.

Otasi tomonidan qarzini to'lash uchun qullikka berib yuborilgan Yusuf o'z xojasi –Aziz amakining xizmatkorlari bilan butun Afrika bo'ylab savdo karvonida katta xizmat safariga yo'lga chiqadi. Yusuf dunyoqarashining shakllanishi iyerarxik tarzda mazkur sayohatda yuz beradi. Asardagi mazkur epizodlarni shaxs kamolotining xronikasi deyish mumkin. Olamiy kengliklar uzra Yusuf o'z qo'rquvi, xurofoti, xatolarini anglay boshlaydi, o'zidagi shaytoniy illatlarga qarshi kurasha boradi. Nohaqliklar, samimiy munosabatlar iztirobi uni toblaydi: "Yusuf, sen ham ular bilan bor, (ba'zi) odamlarning tabiati qanchalik tuban ekanini bilib ol", - dedi Aziz amaki (A. Gurna., 2024,127). Qadimgi dunyo tartibotining qulashi, qabilaviy urushlar, xurofiy odatlar, qullik hamda shaxsiy erkinlik muammolari tabiatan kurashuvchan yigitning mikroskopik nigohi orqali yoritib boriladi: ko'chmanchilarda haqiqiy jangchiga aylanish uchun sher ovlab, uni o'ldirib, olatini yeyish odati bor edi. Har safar sher o'ldirishganida bitta ayolga uylanishlari mumkin; qancha ko'p sher olatini yeyishsa, qabiladagi mavqeyi shuncha baland bo'lardi. Biroq Yusuf shuni tushunadiki, yovvoyilar mingta sherning olatini yeyishsa-da, madaniylashgan insonlar ularni yenga oladi. Mazkur jumlada muallif tub aholining urf-odatlarini shunchaki tasvirlamaydi, aksincha bu kabi xurofiy amallar sabab qimmatli umr, kelajak zavolga yuz tutayotganidan xavotirga tushadi. Qabila boshliqlarining buyukligi qo'shnilarni talab, qo'lga kiritilgan o'ljalar va *asir olingan ayollarning* (Tarjimada "*olib qochilgan ayollar*" deyiladi, holbuki, g'olib bo'lgan tomon olib qochmaydi, balki agar u moddiy ashyo bo'lsa, uni qo'lga kiritadi, agar inson bo'lsa, asir oladi. – K.H) soni bilan o'lchanar edi. Ular jang qilishdan

bo'sh vaqtlarida tana va sochlarini xuddi fohishalarday e'tibor bilan parvarishlashardi. Ilm-ma'rifat ortga chekingan yurtlarda bunday johilona ishlar keng tus oladi.

Yozuvchi *qo'nimsizlik* motivi vositasida, o'z qismatiga ham ishora qiladi – u Zanzibardan chiqib ketishga majbur bo'lgan. Umuman, makonsizlik, sarson-sargardon hayot tarzi Gurna ijodining leytmotivi hisoblanadi.

Otasining qarzдорligi bois qullikka yollangan yigit Yusuf “amaki” deb ataydigan inson – Aziz amakining dargohida dastlab do'kon ishlarni bajarib yuradi. So'ng uning karvoni bilan butun qit'a bo'ylab sayohatga o'tlanadi. Afrika qabilalaridagi hayot tarzi, turli nizolar, qullik va erk masalalari yo'l davomida Yusuf tafakkurining ichki dialogi tarzida bayon etiladi. Voqealar yozda gullarning bevaqt ochilib, tez nobud bo'lishi, toshlar tagidan o'rmalab chiqqan ajabtovur hasharotlar zum o'tmay jizg'anak bo'lishi tasviri bilan boshlanadi. Mazkur prologda bosh qahramon – Yusufning qismatiga ishora qilinadi. Ushbu tasvir orqali muallif keyingi voqealarning mantiqiy tabiati haqida kitobxonni mulohaza yuritishga chorlaydi. Yusuf obrazi motivlarning umumqiyofasini idrok etishga imkon beruvchi yo'nalish uzvi hisoblanadi. Yusufning xarakterida mustaqil Afrikaning ozod ruhi aks etadi. Xarakterni tanib olishning ishonchli yo'li – uning xarakteristikasidir. Xarakteristika xarakter psixologiyasini, uning tabiatini ifoda etuvchi motivlarda yaqqol namoyon bo'ladi (B. Tomashevskiy., 1996, 199-200). Yusuf Aziz amaki siymosida mahobatning jonli suratini ko'radi. Aziz amaki xonaga kirganida o'zi bilan sirli salobat ham olib kelar, undan boylik va jasorat ufurib turar edi. Savdo karvoniga rahbarlik qiluvchi bu amaldor Yusuf uchun ma'naviy rahnamo, din himoyachisi, adolatning bayroqdori edi. “Bu qanday zulmkor xudoki, erkak kishiga sharob ichishni taqiqlaydi, - dedi sulton. – Talabchan, lekin adolatli Xudo, - dedi Aziz amaki” (A. Gurna., 2024, 159). Yozuvchi Aziz amaki obrazini oliyjanob ekspluatator sifatida gavdalantiradi. Aziz amaki bir qarashda juda mehribon, ammo qo'l ostidagi qullariga nisbatan juda talabchan. Karvonning boshi bo'lgan bu odam e'tiqodda sodiq, azaliy qadriyatlarga xayrixoh bo'lgan konservator shaxs sifatida taassurot uyg'otadi. “Endi o'zgarib, shafqatimni qaytarib olmasimdan ketinglar,-

dedi Chatu. – Rahm-shafqat faqat Xudoning himmatidir,-dedi Aziz amaki (A.Gurna., 2024,161). Boshqa rahbar obrazlarda bo'lganidek, u ham o'z qullarining boshini silagan quldor; mazkur obrazda tabiiy "insonlik hujayralari" mavjud. Uning qarorlari adolatli, lekin konservativligi bois quldorlik hissidan bir zum bo'lsin qutula olmaydi. Yusuf bilan muloqotga qadar muddat oralig'idagi boyning qattiqqo'llik tabiati farishtasifat bolani uchratgach, yumshoqsifatlilik fazilatiga evrila boradi. Shuningdek, savdogarning siyrati sayyidlik maqomi belgilarini ham o'zida to'la mujassamlashtirgan: doimo bosiq, vazmin; besh mahal ibodatni vaqtida ado qiladi, salobatni aslo yo'qotmaydi, hamma narsadan boxabar bo'lib yuradi.

"Jannat" romanida Qur'on syujetiga dadil murojaat qilinadi. Garchi umumvoqelikning prototipi qilib muqaddas diniy kitob tanlansa-da, aksariyat hollarda muallif e'tiqod inkor etgan mavzulardan haqdorlik imtiyozlarini izlaydi. Asarda e'tiqod haq deb bilgan narsani qayta tekshirmoq, gunoh deb atalgan qat'iy hukmlarni boshqatdan isloh qilmoq kerak, degan mazmundagi tafakkur ustunlik qiladi. "Muhammad" ismi oldidan "shayton", "iblis" sifatlovchi so'zlari qayta-qayta takrorlanib keladi. Garchi bunday sifatlashlar Muhammad s.a.v. shaxsiga nisbatan emas, balki asardagi Muhammad Abdalla degan personajga qarata ishlatilgan bo'lsa-da, bu o'rinda diniy-axloqiy madaniyat tabiatiga putur yetganini ham inkor etib bo'lmaydi. Zotan, buyuk qalam bu ikki so'zni ("shayton", Muhammad) yonmayon qo'llashi jarayonida dinlararo, madaniyatlararo qadriyat-an'analarga hurmat ko'rsatmog'i lozim. Bundan tashqari, asar syujetida diniy manbalarga oid yanglish xulosalar ham kuzatiladi. Me'roj tunida Buroq degan qanotli ot Payg'ambarimiz s.a.v.ni Makkadan Quddusga, undan Yaratgan huzuriga olib chiqqani haqida asarda qaydlar mavjud. Vaholanki, u zoti sharif Buroq vositasida yettinchi ko'kkacha bordilar. Haq huzuriga esa xilqati faqat Allohgagina ma'lum bo'lgan yaratiq Rafrat bilan ko'tarilganlar. Bolaligida arab tili kurslarida qunt bilan o'qigan adibni diniy bilimsizlikda ayblash mantiqsiz bir ish, albatta. Yerdan yuksakroqda bo'lgan har qanday vertikal manzil ilohiylik mazmuniga ega, degan qarash nuqtayi nazardan yondashilsa, muallif fikrlari asoslidir.

Zulayho (beka) sayyidning (Aziz amaki) rafiqasi bo'lib, u bir dardga chalingan, biroq kasali jism emas, qalb yarasiga o'xshaydi, odamlardan yashirinib yuradi. Aziz amakining *“Jannat ahlining aksari kambag'allar bo'lsa, do'zax ahlining ko'pi ayollardan iborat bo'larkan”*, degan fikri aslida o'z ayoli ehtimoliy qilmishi haqida aytilgan kinoya, shu bilan birga voqelikni Qur'oni karim syujeti bog'lovchi badiiy rishtadir. *“U (Zulayho) Yusufning yelkasiga qo'lini qo'yganida yigit qaltirab ketib, orqaga chekina boshladi, ammo beka ham unga qarab yurardi. Qochish uchun orqaga o'girilganda beka uning ko'ylagining orqasidan ushlab oldi. Yusuf ko'ylagining ort tomoni yirtilganini his qildi”* (A.Gurna., 2024, 237). Bu hodisaga qadar beka mehr-muhabbatga muhtoj ma'suma qiyofasida tasvirlanadi. Uyning bosh xizmatkori Xalilga aytgan quyidagi fikrlari ayol haqida o'zgacha xulosa qilishga asos bo'ladi: *“Shuncha qilgan mehribonligimdan keyin ham menga hujum qilib, kiyimlarimni hayvonday yirtib tashladi”* (A.Gurna., 2024, 239). Yusuf esa *“U ko'ylagimni orqamdan tortib yirtidi. Bu mening undan qochishga majbur bo'lganimga isbot bo'la oladi”*, deydi. Aziz amaki Yusufning gaplariga ishonadi, ayol makriga uchmaydi. Uning jannat hamda do'zax ahillari haqidagi xulosasi mazkur fitnaning va fitnachining qiyofasidan tortilgan ko'zgu-jumla vazifasini bajaradi. Shu nuqtada tadqiqot Yusuf va ayol (Zulayho) haqidagi ishq mojarolari bayon qilingan ishonchli manbaga – Qur'oni karimning eng go'zal qissasi matniga, voqeligiga tabiiy bir ehtiyoj sezadi.

“Yusuf” surasi Qur'oni karimdagi o'n ikkinchi sura bo'lib, u bir yuz o'n bitta oyatdan iborat. Ushbu surada tutqunning kun kelib ozod bo'lishi, bemorning vaqti kelib shifo topishi, yo'qolgan insonning yaqinlari bilan topishib, ko'zlarning quvonishi, mahzun kishining fursat yetib shodlanishi, g'amning muddat o'tib arishi singari mavzular bayon etiladi. Surada 1) otalik mehri; 2) birodarlik; 3) muhabbat; 4) ayol makri; 5) tush ta'biri; 6) afv etish kabilar ifodasini topgan. Yusuf a.s. tushida o'n bitta yulduz, quyosh va oyning unga sajda qilayotgan holidagi ko'radi (Qur'oni karim., 2004, 236). Shunda otalari Ya'qub a.s. o'g'liga bu tushni birodarlariga so'zlab bermaslikni tayinlaydi. Ota o'g'lini aqli, husn-u siyrati, odobi juda yuksak ekanidan qattiq yaxshi ko'rardi. Buni payqagan birodarlari Yusuf a.s.ga hasad

qilishar edi. Xullas, ota qo‘rqan voqea yuz beradi. Bu voqea “baytul hazan” (g‘am uyi) xojasini (Ya‘qub a.s) chuqur qayg‘uga soladi. Biroq bu ulkan bir sinov ham ediki, Yaratgan qattiq muhabbat bog‘lagan ko‘ngillarni firoq zahmati bilan toblab, yanada go‘zalroq, balolarga bardoshliroq qiladi. Misrda Yusuf a.s.ni sotib olgan kishi (Qitfir) xotini (Zulayho)ga : “Unga yaxshi joy ber, zora bizga foydasi tegsa yoki uni o‘g‘il qilib olsak” (Qur‘oni karim., 2004, 238), - deydi. Ayol (Zulayho) undan nafsini qondirishni talab qildi va eshiklarni qulflab, “Qani, kel!” deydi. (Yusuf) deydi: “Alloh asrasin! Axir, u (ering) xojam-ku?” (Qur‘oni karim., 2004, 239). (Zulayho) unga moyil, u (Yusufning dili) ham bunga moyil bo‘lgandi. Biroq Yusufdagi istak-xohish dilda hosil bo‘ladigan, ammo uni ijro etish niyati bo‘lmagan tabiiy bir mayl edi. Zulayhoning moyilligi esa uni amalga oshirish niyati bilan edi. “Agar Rabbining hujjatini ko‘rmaganda bo‘lar ish bo‘lar edi” (Qur‘oni karim., 2004, 239) . “*Rabbining hujjati*” otasi Ya‘qub a.s.ning siymosi edi, ya‘ni Yusuf a.s.da mazkur mayl hosil bo‘lgan zahoti bexos ko‘zlariga otasining barmog‘ini tishlab turgan qiyofasi ko‘rinib ketib, go‘yo “ bu ishdan qayt”, degandek tuyuladi. “*Barmog‘ini tishlamoq*” iborasining etimologik mohiyati ushbu tarixiy-diniy syujetda nazarda tutilgan situatsiyani inkor etmaydi. O‘zbek tilining frazeologik lug‘atida bu ibora 1) “hech narsa qilolmay, natijaga erisha olmay lol qolmoq; 2) “afsuslanmoq” ma’nolarini ifodalashi qayd etilgan (Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., 2022, 62,63).

“Ikkisi eshik tomon quvalashib ketdilar: Yusuf qochdi, u (Zulayho) esa quvdi va uning (Yusufning) ko‘ylagini orqa tomondan yirtib yubordi (Qur‘oni karim., 2004, 239). Allohning mo‘jizasi bilan beshikdagi bola guvohlik beradi: “Agar uning ko‘ylagi old tomonidan yirtilgan bo‘lsa, u (Zulayho) rost so‘zlagan, u (Yusuf) esa yolg‘onchilardandir (26-oyat). Bordi-yu, ko‘ylagi orqa tomondan yirtilgan bo‘lsa, u (Zulayho) yolg‘on so‘zlagan, u esa rostgo‘ylardandir (27-oyat). Misr azizi Yusufning ko‘ylagi orqa tomonidan yirtilganini ko‘rgach, “Albatta, bu siz (ayollar)ning makringizdir. Haqiqatan, sizlarning makringiz ulkandir” (28-oyat), - dedi. Ta’kidlash joizki, Abdulrazzoq Gurni Qur‘oni karimning “Yusuf” surasidagi 28-oyatni asarining personajlaridan biri Aziz amaki nutqi orqali boricha keltirib

o‘tadi : muallif sayyidning ayoliga nisbatan keyingi munosabatlarini ochiq qoldiradi. Qalamning tabiati bemor qiyofasidagi makkoraga nisbatan hamdard bo‘lishga moyil. Yozuvchi buni *ayollar huquqi* degan niqob bilan, zino xohishini esa insonga xos, axloqdan yiroq bo‘lgan *tabiiy refleks* tarzida ifodalaydi; fikriy ziddiyatlar vujudga kelganida chiqish nuqtasi uchun betaraf oraliq mulohazalar yo‘lagi paydo bo‘ladi. Fanda “*antinomiya*” tushunchasi bo‘lib, u turli haqiqatlarning murosasini nazarda tutadi. Ushbu hodisa ilmiy tafakkurning chiniqishi, tadqiqotlar uchun g‘oya vazifasini bajarishi bilan bir qatorda *hukmlar arosatini* ham yuzaga keltiradi.

Qur‘on syujeti asosida yozilgan Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi “Yusuf qissasi”da Zulayho osiyliги bois tavbasiga tayangan, haq yo‘lga yuz burgan malika siymosida tasvirlanadi:

Yusuf: “*Qaydadur husni jamoling?*”

Zulayho: “*Ketti tilab bazmi visoling*”.

Yusuf: “*Kim ayladi xam sarvi nozing?*”

Zulayho: “*Ul bori hajri jon gudozing*”.

Yusuf: “*Ko‘zing nedin benur bo‘ldi?*”

Zulayho: “*Sensiz oqib qon, ko‘r bo‘ldi*” (Nosiruddin Rabg‘uziy., 1990, 76). Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayho” dostonida Zulayhoning chiroyi yetmishta baytda ta‘rif-tavsif qilinadi. Jomiy Zulayho obrazini asosan, ishq-muhabbat yo‘lidagi jasoratli shaxs sifatida tasvirlaydi. Malika Zulayho ko‘rdiki, Yusuf “*Jamole ko‘rdikim, boshdan oyoq nur, Na monandi pari, na mislidur hur*”. Zulayho Yusufni boshqa qullar bahosidan ikki chandon qimmatga sotib oladi. Bu harakat Yusufni qadrlashning bir usuli ham edi. Zulayho o‘yladiki, “*Xush ul kunkim, bo‘lib tole‘ madadkor, Yetishgay yorining vasliga ul yor*” (Abdurahmon Jomiy., 1974, 105). Ammo bu quvonch o‘tkinchi bo‘lib chiqadi: malika o‘z istagiga yeta olmay qon yig‘laydi. Yusufda esa u istayotgan ishga mayl yo‘q edi: “*Zulayhokim, edi shaydoyi Yusuf, Ango chun bo‘lmadi parvoyi Yusuf*” (Abdurahmon Jomiy., 1974, 107). Zulayho ba‘zi ayollarning gapiga kirib, Yusufni zindonga soldiradi, keyinroq bu qaroridan afsus chekadi, Yusufning yo‘liga – diniga kiradi: o‘z uyidagi

butlarni sindirib tashlaydi (Hakimov K., 2022, 34,35). Mashhur qissaning sharqona talqini mana shunday ifoda etiladi yoxud shunaqa yakunlanmani taqozo etadi.

“Jannat” romanida Zulayho obraziga munosabat bobida, uning makr-hiyla ishlatish tabiatiga nisbatan *ko‘z yumish* usuli yetakchilik qiladi. Buni asarning mazmun-mohiyati diniy syujetni qayta badiiy jonlantirish emas, uning fonida ijtimoiy-siyosiy masalalarni bosh maqsad sifatida ko‘tarishdan iborat deya baholasa bo‘ladi. Boshqa tomondan, yozuvchi tarixiy-diniy mavzuga murojaat qilish orqali inson ruhiyatidagi, dunyoqarashi va e‘tiqodidagi evrilishlarni, tuslanishlarni taqqoslamochi bo‘ladi. Bu orqali jahon sahnida yuz berayotgan o‘zgarishlarning keyingi yo‘nalishlarini tasavvur qilishga, insoniyat taqdiridagi burilish nuqtalarini aniqlashga intiladi, oqibatlar haqida o‘yga botadi Unutmaslik lozimki, maqsad va e‘tiqod *yagonalik prinsipiga* asoslanadi. Haq bitta, unga yetish yo‘llari garchi turli xil bo‘lsa-da, bir-birini inkor etmasligi muhim omildir. Insoniyat mavjud voqelikni ortiga qaytaradigan va hammasini boshidan boshlash imkonini beradigan vaqt mashinasini ixtiro qilmagan va qilolmaydi ham. Har hodisada bir hikmat qoidasiga teskari o‘laroq, mavjud tartibotni butkul inkor qilish hamda yangi Amerika ochishga qayta urinish absurd kayfiyatni yuzaga keltiradi. Asarda “*emish*”, “*ekan*” to‘liqsiz fe’llarining bir necha marotaba qo‘llanishida ham mazkur ma’naviy inqirozning aksadosi bor. Bu fe’llarning mohiyatida haqdan yiroqlik, afsonalar ichida yashash, g‘iybat, mish-mish semalari mujassam: “*boyligini sanab adog‘iga yetib bo‘lmasmish*”, “*u odam cho‘qqidagi temir qasrda yasharmish*”, “*yevropalikda yer ruhlarini xizmatiga bo‘ysundira oladigan uzuk bor ekan*” va hokazo. Bunday tafakkur (agar buni tafakkur deyish mumkin bo‘lsa) egalari bilan zamon Yusufllari qandoq qilib saodatga, hurriyatga erisha olsin? Romandagi “*bizning Zanzibar shunday yurtki, u yerda hatto qullar ham quldorning tarafini oladi*” (A.Gurna., 2024, 89) jumlasini muammoga yechim topishning naqadar amrimahol ekanini ifoda etuvchi jonso‘zdir. Yoki “*Odamlar senga egalik qilaman, mening qulimsan degani xuddi bir yomg‘ir yog‘ib o‘tganiga o‘xshaydi yoki kun oxiriga kelib quyoshning botishiga. Ularga yoqadimi yo yo‘qmi, ertasi kuni yana quyosh chiqadi. Erkinlik ham xuddi shunday; seni qamab, zanjirband qilishlari mumkin, lekin ozodligingni*

tortib olish qo'llaridan kelmaydi" (A.Gurna., 2024, 225). Mazkur parcha asarning leytmotivi hisoblanib, boshqa voqealar, hikoyatlar, qissalar, dialoglar o'zaro uyg'un badiiy tirgaklar vazifasini bajaradi.

Ayrim personajlar Yusuf obraziga mantiqan qarama-qarshi bo'lib, ularning xatti-harakatlari buyuk maqsadlarga erishish yo'lidagi kurashlarga butkul teskari bo'lib, zaminiiy ehtiyojlardan nariga o'tmaydi. Inson qadr-qiymati, yurt ozodligi, kelajak avlod haqidagi o'ylar ularga butunlay yoki qisman begonadir. Har bir tirik mavjudotning ichki olamida *omon qolish instinkti* mavjud, biroq bu tuyg'u inson olamidan sharaf hissini sug'urib tashlash xususiyatiga ega. Katta savdogar Aziz amakining oldi-sotdi ishlarida asosiy mas'ul bo'lgan xizmatkor Xalilning aytishicha, *anor* hamma mevalar ichida eng bekam-u ko'sti ekan, chunki u apelsin, shaftoli va o'rikning umumiy lashgani emish. Tasvirda Xalil obraziga mo'jaz xarakteristika mavjud. Uning egilib, Aziz amakining qo'lini iloji boricha yutib yuboradigandek o'pishi Yusufni uyaltirib yuboradi. Yoki hind ishbilarmoni Kalasinga "echki go'ngiga belangan chayqovchilarning yurti" Mumbaydan bo'lib, u hodisalarning mohiyati, oqibatlari ustida jiddiy mulohaza yurita oladi: "Dinga qattiq berilib ketsang, irim-sirimchi bo'lasan... . Men Qur'onni inglizchadan suahili tiliga tarjima qilmoqchiman – siz , ahmoq yerliklar, sajda qilayotgan xudoyingizni eshita olishingiz uchun. Bu – mening salib yurishim bo'ladi. Men zamondosh birodarlarim haqida qayg'uraman, hatto ular johil alloh-vallohlar bo'lsa ham. O'zi, bu – kattalarning dinimi? Ehtimol, men xudoni, uning mingta ismini va millionlab va'dalarini (!) bilmasdirman, ammo siz sig'inadigan bu mushtumzo'r (!) xudo emasligini bilaman (A.Gurna., 2024, 86). Hind odami monologida insoniyatning ko'p asrlik e'tiqodlariga, muqaddas hisoblangan qadriyatlarga, umuman insoniyat qismatiga qarshi isyonning pinhona shiviri mavjud. Shunda Husayn : "Sen Xudoyimizni toqatsizlikda ayblaysan, unga bo'ysunganimiz uchun bizni ahmoq deysan, o'zing esa odamlarni yovvoyi deb qoralaysan" (A.Gurna.,2024,87) , - deydi. Muallif turli obrazlari vositasida sharqona islomiy tafakkur bilan munozara qiladi, haqqoniy yo'lni izlaydi yoxud o'zi to'g'ri deb bilgan haqiqatlarni nogahon peshlash usulini qo'llaydi. Kitobxonda quyidagicha savol paydo bo'lishi tabiiy: qadim

dunyodan to hozirga qadar insoniyat taqdirida saodatli bir o'zgarish yuz berganmi yoki hamma narsa barqaror holatda saqlanib qolganmi? Taraqqiyot, hurriyatga to'siq bo'layotgan kuch nimada aks etadi; insonga xos nafsoniy istaklardami yoki e'tiqodlardami va yoki adolatsiz deb baholanuvchi tarixiy kelishuvlardami? Asardagi ko'chmanchilarning sultoni, chatu, Kalasinga kabi personajlar muallifning *e'tiqodiy elchilari* vazifasini bajarishga xizmat qiladi.

Diniy tafakkur nuqtayi nazaridan qanchalik diskussiyaga borilmasin, muallif tarixiy voqelikka diniy kontekst mavqeyidan turib baho berishga harakat qilmasin, hurriyat, inson qadri singari masalalar asarning bosh mavzusi sanaladi. Romanda diniy syujet tarixning bir bo'lagini tasvirlash uchun vosita vazifasini bajargan. "Jannat" romanida Yusuf a.s. haqidagi qissalarning quyidagi ijtimoiy-badiiylashgan motivlariga duch kelamiz:

1. **Qullik zahmati.** Bosh qahramon Yusuf asosiy voqealarning o'zaniga qullik sabab tushib qoladi. Farq shundaki, diniy syujetda Yusuf a.s. bu jarayonni majburiyatsiz, faqat tasodifan boshidan o'tkazsa, zanzibarlik bola ilojsizlik, majburlik sabab qullikka berib yuboriladi;
2. **Hurriyatga chiqish bosqichi.** Bu holat ham ikki manbada ikki xil shaklda ro'y beradi, ya'ni Yusuf a.s. mo'jizalar, sinovlardan so'ng shohlikka ko'tarilgan bo'lsa, Gurna asari qahramoni afrikalik asirlarni olib ketayotgan nemis bosqinchilarining izidan tushish orqali o'ziga ozodlik hukmini o'qiydi;
3. **Karvonchilar.** "Jannat" romanida bu toifa kishilari ba'zan *e'tiborsiz xaridorlar, olomon* qiyofasida namoyon bo'lib, ularning asosiy maqsadi boylik orttirish va omon qolishdan iborat;
4. **Ayol makri va go'zallik sinoatlari.** Diniy qissada hamda badiiy matndagi Yusufning har ikkisi go'zallik timsolidir. Go'zallik esa odamning ichida bo'ladi, tashqi ko'rinishida emas. Romanda mnyanparaning "*Kim ham bunaqa chiroyli yigitni yoqtirmasdi? Onangni farishta ko'rgani kelgan bo'lsa kerak*", degan fikrida ko'rkamlikka nisbatan insoniyat qiziqishi, talpinishi yotadi (A.Gurna., 2024, 117). Sayyidning ayoli Zulayho bekada ham xuddi shunday holat kuzatiladi. Aslida, go'zallikka ko'r-ko'rona maftun bo'lish, hissiyotlarga

erk berib yuborishning dahshatli oqibatlarini go‘zal Yelenaga behushlarcha oshiq bo‘lib qolgan majnun Paris sabab Troyaning yer bilan yakson qilinishi misolida ko‘rish mumkin;

5. **Tush.** O‘n ikki yoshli Yusuf tushida bir paytlar poyezd tagida qolib o‘lgan bir ko‘zli it siymosida o‘z onasini ko‘radi. Bu, aslida uning qo‘rquvi, shuningdek ona it fojiasi uning o‘z onasidan ayrilib qolishiga, kuchukcha esa Yusufning yetim qolishiga ishora edi;
6. **Karvon motivi.** Karvon diniy syujetda asosiy qahramonning (Yusuf a.s.) tarix sahnasiga kirib kelishida muhim vositachilikni ifoda etsa, “Jannat” romanida bosh qahramonning dunyoqarashi shakllanishida, tafakkurining yuksalishida, bolalikdan mas’uliyatli shaxslik maqomiga chiqishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Karvonning ibtidosi foniy olam sarhadlaridan boshlanadi, intihosi esa shubhasiz, boqiy haqiqatlar olamiga daxldordir. Karvon kichkina boshni katta voqeliklar olamiga eltuvchi ma’naviy safar vositasi bo‘lib, undagi sinovlar saodat uchun, quvonch esa shukr uchun tortiq vazifasini bajaradi. Karvondan maqsad mohiyatan kengliklarga intiluvchi ruhning tor jism bilan chiqisha olmasligi, shuningdek, xom vujudni, tor tafakkurni, so‘qir ko‘zni cheksiz ruhoniy maqomga monand holda ma’nan pishitishdan iborat;
7. **Xunuklik.** Go‘zallikning aksi bo‘lsa-da, ular chambarchas bog‘liq. Iso a.s.ga havoriylari o‘lib yotgan itni ko‘rsatib, u naqadar jirkanch, dedilar. Shunda Ruhulloh “bu itning tishlari naqadar oppoq”, dedilar. Aslida, xunuklik go‘zallikni qadrlashning kafolatidir. Biroq estetikaning mazkur predmeti insoniyat uchun jiddiy xavf sanalmasa-da, baribir salbiy xarakterga ega, negaki tabiiy ko‘rksizlikni odamzod o‘zlashtirib olishi ham mumkin (Yuriy Borev., 2002, 94, 95). “Jannat” romanida xunuklik go‘zallikka soya solishga intilgan axloqsizlik, makr-hiyla, qo‘rqoqlik, ochko‘zlik shakllarida namoyon bo‘ladi.

Abdulrazzoq Gurnaning “Jannat” romani syujeti zolimning zulmidan azob chekayotgan mazlumni haq-huquqi uchun kurashishga ilhomlantiradi. Shaxsiy manfaatdorlik, tabiatan mutelik insonni hurriyat saodatidan yiroqlashtiradi, haq yo‘llari berkiladi. “Haq” deganda nima nazarda tutilayotgani keyingi voqealarning

harakat yoʻnalishini belgilab beradi, chunki eʼtiqod masalasi ozodlikka yoʻlning debochasi vazifasini ham bajaradi. Zotan, Herman Hesse taʼkidlaganidek, zolimlar qilmish zulmini “bu – xudoning irodasi” deya asoslasalar, mazlumlar Yaratgandan madad kutadilar.

“Jannat” romanidagi tush tasviri, boʻri-odam haqidagi dunyoqarash, tunda irillayotgan itlarning simvolik portreti, “malika, oʻtinchi yigit va jin” choʻpchagi, sirlilik mohiyatiga ega boʻlgan poyezd va temiryoʻl tasviri, ruhiy “men” singari badiiy vositalar mistik romanga xos xususiyatlar hisoblansa-da, biroq voqealarning umumyoʻnalishi asarning koʻproq ijtimoiy-siyosiy yoki tarixiy roman ekanidan darak beradi. Aksincha, diniy syujet ijtimoiy-siyosiy-tarixiy mavzu uchun prokartina vazifasini bajargan, mistik unsurlar esa sodir boʻluvchi tarixiy voqelikka ishora qiluvchi sirli tugun-vosita shaklida ifoda etilgan. Jumladan, Imom Nablusiyning “Tush taʼbirlari” kitobida tushdagi “temiryoʻl” oʻngda yaxshilikka yoʻyilib, kishi rejalashtirgan ishlarni amalga oshirishda toʻsiqlar paydo boʻlishi, ammo u tezda oʻtib ketishidan, ishlar keyinchalik yurishib ketishidan dalolat ekani qayd etilgan (Imom Nablusiy., 2014, 289). Darhaqiqat, shu marradan nazar solinganda Yusuf koʻrgan tushlar zahirida uning ozodlik yoʻlidagi ulkan rejalarning xayrli roʻyosi yaqin ekani yaqqol koʻzga tashlanadi.

Rus olimi Lev Vigotskiy Shekspir qahramoni Hamlet haqida shunday deydi: “Hamlet – tipik mistik obraz; u doimo qandaydir sirli, shuning barobarida fojiali tubsizlik halqasi boʻylab harakat qiladi hamda zaminda turib oʻzga bir olamga nigoh soladi. Yoxud oʻzga olamning vakili sifatida yerdagi fitnalardan dahshatga tushadi. Bulut nur deb oʻylagan narsa baʼzan arziyas bir zarra boʻlgani singari, biz fojia deya atagan hodisot shoshilinch xulosaning mevasi boʻlib chiqishi ham mumkin. Afsuski, insonda nurni toʻla his qila olmaydigan bulutlarning shoshqaloqligi bor” (Lev Vigotskiy., 1998, 352). Mazkur taʼrifga monand Yusuf obrazida oʻziga xos xarakterli xususiyatlar mavjudki, ular yuqoridagi xulosaga toʻla mos keladi: olomon ichida boʻla turib, undan ayrolik, yuksaklik, faromushlik, mulohazakorlik, sabrlilik, kamtarlik, masʼuliyatlilik va hokazo.

Romanning keyingi boblari tarixiy ishq mojarolari (Yusuf va Zulayho) mavzusidan yiroqlashib, hatto bu masala atay unutiladi. Obrazlar harakatida faol ijtimoiylashuv jarayoni yuz beradi. “Jannat” asarini “tarixiy roman” deb baholashning qator asoslari borki, ularni quyidagicha tasniflash mumkin :

- tarixiy haqiqat badiiy haqiqat darajasiga o‘tib chiqqani; Yusuf a.s. haqidagi tarixiy voqeaning qayta badiiy gavdalantirilishi;

- muallif yashagan davr hamda “Jannat” romani voqeligi orasida salkam bir asrlik davriy masofaning mavjud ekani;

- asarning bosh qahramoni sifatida badiiylashtirilgan tarixiy Yusuf obrazining, shuningdek, tasvir obyekti qilib Afrika tarixida muhim sanalgan ozodlik uchun kurashning ilk ildizlarining tanlangani;

- davrning ijtimoiy-siyosiy kartinasini shaxsiy qalam vositasida gavdalantirish, voqelik va shaxsiyatga nisbatan individual munosabat;

- ijtimoiy hamda e’tiqodiy voqelikning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rniga qiyosiy baho berish.

XULOSA

Asar voqealari yakuni nemis askarlarining tub yerlik aholini olib, safga solib ketishi, odamlarning oyoq izlaridan toptalib ketgan maydon yaqinidagi sufiy daraxti ostida itlarning axlat titishi tasviri bilan nihoyalana boradi. O‘z qo‘rqoqligidan jirkanish holiga kelgan Yusuf itlar to‘dasi bilan qolishni istamaydi – saf ortidan yugurib ketadi. “Jannat” sarlavhasi tagzamidagi erk uchun kurash, baloga sabrli bo‘lish hamda “OZODLIK” deb nomlangan jannat yurtini barpo etish istaklari yotadi. Roman qahramoni Yusuf taqdiri misolida yosh, tajribasiz beg‘ubor yoshlikning zavoli; boshga tushgan musibatlarning sabog‘i, tajriba orttirish va bolaning haq-huquqlari borasida mushohada yuritish; og‘ir sinoatlar sababli shaxs sifatida erta shakllanish; o‘zni himoya qilishga intilish hamda buni uddalash; qo‘rqoqlikdan xijolat chekish, maydonga chiqish, erk uchun kurashda eroniyalar safida turish singari bir qator mavzular bo‘rttirib tasvirlanadi. Haqiqatan ham, jannatga nafsoniy mayllarga qarshi kurashish bilan, jannatmisol ozodlikka esa jur‘at,

jasorat, sabr-toqat bilan erishish mumkin. Zero, dono Xalqimizning iborasi bilan ifoda etganda, jon chekmasang, jonona qayda? Ta’kidlash joizki, jasorat – Haqqa tavakkulning oliy amaliy ko‘rinishidir. Jasorat – vatandoshlik burchidir. Ezgulik yashab qolishiga umid so‘na boshlagan lahzadan jasorat porlagan ko‘yi maydonga chiqadi. Qahramonlik etikasiga ko‘ra, maqsad jasorat ehtiyojini ilohiylashtirmaydi, balki mardonalikning istalgan shakli maqsad omiliga buyuklik tusini berib, uni muqaddaslashtiradi. Bundan ko‘rinadiki, jasorat ehtiyoji tug‘ma instinktga aylana borgani sayin maqsadning darajasi samoviy yuksaklik qadar ko‘tariladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Тошкет ислом университети, 2004.-Б. 624.
2. Абдурахмон Жомий. Юсуф ва Зулайхо.- Т.:Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б. 240.
3. Белинский В.Г. Танланган асарлар. Т.: Ўздавнашр, 1955.- Б. 496.
4. Боров Ю.Б. Эстетика. Москва, “Высшая школа”, 1988.- С. 496.
5. Выготский Л.С. Психология искусства. Ростов на Дону, «Феникс», 1998.- С. 480.
6. Имом Наблусий. Туш таъбирлари. – Тошкент, “Yurist-media markazi”, 2014. – Б. 456.
7. Мелиев С. Сўзу сўз. – Т.: “SHARQ”, 2020. – Б. 528.
8. Рабғузий Н. Қисаси Рабғузий. – Тошкент, “Ёзувчи”, 1990. - Б. 240.
9. Томашевский Б.В. Теория литературы. Поэтика. Москва, “Аспект пресс”, 1996.-С. 334.
10. Abdulrazzoq Gurna . Jannat. – Toshkent , “Asaxiy books”, 2024. – Б. 256.
11. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. – Toshkent, “MA’NAVIYAT”, 2009. – Б. 336.
12. Kamol Hakimov. Sabr va nafs jangi. – Polsha, “Gospodarka I Innowacje”, Vol. 21/2022. – Б. 34,35.

13. Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov va boshq. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘. G‘ulom NNMU, 2022. – B. 636.

REFERENCES

1. The Holy Kur’an. (2004) Uzbek explanatory translation. Translated and commented by Abdulaziz Mansur.- Tashkent: Tashkent Islamic University, p. 624.
2. Abdurakhman Jami. (1974) Yusuf and Zulaikha. – T.:Gafur Gulam Literature and Art Publishing House, p. 240.
3. Belinskiy V.G. (1955) Selected Works. T.: Uzdavnashr, p. 496.
4. Borev Y.B. (1988) Aesthetics. Moscow, Vysshaya shkola, p. 496.
5. Vygotskiy L.S. (1998) Psychology of Art. Rostov na Don, Feniks, p. 480.
6. Imam Nablusi. (2014) Interpretation of Dreams. Tashkent, Yurist-media centr, p. 456.
7. Meliyev S. (2020) Word by Word. – T.: Shark, p. 528.
8. Rabghuzi N.B. (1990) The Story of Rabghuzi. Tashkent, Yozuvchi, p. 240.
9. Tomashevskiy B.V. (1996) Theory of Literature. Poetics. Moscow, Aspekt press, p. 334.
10. Abdulrazzak Gurnah. (2024) Paradise. Tashkent, Asaxiy Books, p. 256.
11. Abdurauf Fitrat. (2009) Selected Works. Tashkent, Ma’naviyat, p. 336.
12. Kamol Khakimov. (2022) The Battle of Patience and the Self. – Poland, Gospodarka I Innowacje, Vol. 21/22, pp. 34,35.
13. Sh. Rakhmatullayev, N. Makhmudov et al. (2022) Phraseological Dictionary of the Uzbek Language. Tashkent, G.Gulam NNMU, p. 636.